

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI





MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar (tillardan
tashqari)
Mutaxassislik: 70220503 – Tasavvuf germenevtikasi

TOSHKENT – 2025

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:  Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germenetika kafedrasi mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i  Abdasheva M.M.

Fan/modul kodi MNM1106	O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikning nazariy masalalari	72	108	180

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad - "Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanining asosiy maqsad va vazifasi "Tasavvuf germenevtikasi" magistratura mutaxassisligining nazariy asoslari haqida ma'lumotga ega bo'lish, Tasavvufshunos mutaxassis bo'lish uchun qaysi zaruriy bilimlar, ko'nikmalar va tajribalarga ega bo'lish lozimligi haqida umumiy ma'lumotlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi - "Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanining sharqshunos-tasavvufshunos va faylasuf mutaxassislar tayyorlanayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida joriy qilinishi birinchi galda bu fanning zarurligini belgilaydi. Zero, bu fan talabalarning Sharq falsafasi va qo'shimcha ravishda, arab va fors-tojik tillarini bilishlari tufayli samarali yo'lga qo'yish imkoniga ega.

Xorij tajribasiga muvofiqligi:

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Leiden universiteti** (ARWU 111) xorij tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

<https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1>

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu:

"Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanining maqsad va vazifalari.

Tasavvufshunoslik – mustaqil mutaxassislik sifatida. Tasavvufshunos mutaxassis uchun zarur bo'lgan fan sohalari tasnifi.

(2 soat)

"Mutaxassislikning nazariy masalalari" fanining maqsad va vazifalari: "Tasavvuf germenevtikasi" magistratura mutaxassisligining nazariy asoslari haqida ma'lumotga ega bo'lish, Tasavvufshunos mutaxassis bo'lish uchun qaysi

zaruriy bilimlar, ko'nikmalar va tajribalarga ega bo'lish lozimligi haqida umumiy ma'lumotlar berish.

Tasavvufshunoslik – mustaqil mutaxassislik sifatida Falsafa va Dinshunoslik o'rtasida turishi. Tasavvufshunos mutaxassis uchun zarur bo'lgan sohalar va fanlar tasnifi: Falsafa, Dinshunoslik, Islomshunoslik, Filologiya, Manbashunoslik, Psixologiya, Etika.

2-mavzu:

Tasavvufshunoslik – “Falsafa” tarkibidagi mutaxassislik sifatida. Tasavvufning “Falsafa”, “Falsafa tarixi”, “Islom falsafasi”, “Din falsafasi”, “Tasavvuf falsafasi” fanlari bilan o'zaro uzviy aloqadorligi.
(2 soat)

Tasavvufshunoslik – “Falsafa” tarkibidagi mutaxassislik hisoblanishi. Tasavvuf va tasavvufshunoslikning “Falsafa”, “Falsafa tarixi”, “Islom falsafasi”, “Din falsafasi”, “Tasavvuf falsafasi” fanlari bilan o'zaro uzviy aloqadorligi. Tasavvuf mutaxassisining falsafiy fanlarni chuqur bilmasligi uni mutassiblik va boshi berk ko'chaga olib borishi. Tasavvuf ilmining ma'noli va mantiqli fikrga asoslanishi. Tasavvuf ilmining Inson, Yaratguvchi, Borliq va undagi narsalar haqida tafakkur qilishni o'rgatuvchi ilm ekanligi.

3-mavzu:

Tasavvufshunoslik – falsafiy fan sifatida. Tasavvufning ontologik, gnoseologik va antropologik asoslari. Tasavvufni o'rganishda falsafiy metodlar va metodologiyalar, falsafiy qonunlar va kategoriyalarning ahamiyati.
(2 soat)

Tasavvufshunoslik – falsafiy fan sifatida e'tirof etilganligi. Tasavvufning ontologik, gnoseologik va antropologik asoslari mavjudligi. Tasavvufni o'rganishda falsafiy metodlar va metodologiyalar, falsafiy qonunlar va kategoriyalarning ahamiyati va o'rni beqiyosligi. Tasavvuf ilmining asosida Inson, Xudo, Borliq, Hayot... haqidagi g'oyalar yotishi, g'oyalar esa falsafaga tegishli ekanligi. “Irfon” falsafasi Tasavvuf ilmimining markazida turishi. Irfon Tasavvufning bilish falsafasi ekanligi.

Tasavvuf ilmining inson dunyoqarashini shakllantiradigan ilm ekanligi. Dunyoqarashfalsafaga tegushli funktsiya ekanligi.

4-mavzu:

Tasavvufshunoslik – “Dinshunoslik” sohalasi doirasidagi mutaxassislik sifatida. Tasavvufshunoslikning “Din nazariyasi”, “Din tarixi”, “Din falsafasi”, “Din psixologiyasi”, “Din etikasi”, “Qiyosiy dinshunoslik” fanlari bilan aloqadorligi.
(2 soat)

Tasavvufshunoslik – “Dinshunoslik” sohasi doirasidagi mutaxassislik sifatida shakllanganligi. Tasavvufshunoslikning “Din nazariyasi”, “Din tarixi”, “Din falsafasi”, “Din psixologiyasi”, “Din etikasi”, “Qiyosiy dinshunoslik” fanlari bilan aloqador ekanligi.

5-mavzu:

Tasavvufshunoslik – “Islomshunoslik” sohasi doirasidagi mutaxassislik sifatida. Tasavvufning Qur`on, Tafsir, Hadis, Islom tarixi, Fiqh va Kalom (Ilohiyotshunoslik) ilmlari bilan uzviy aloqadorligi.

(2 soat)

Tasavvufshunoslik – “Islomshunoslik” sohasi doirasidagi mutaxassislik sifatida shakllanganligi. Tasavvufning Qur`on, tafsir, hadis, islom tarixi, fiqh va kalom (ilohiyotshunoslik) ilmlari bilan uzviy aloqador ekanligi. Qur`on va hadisni bilmasdan turib Tasavvuf ilmini o`zlashtirib bo`lmasligi. Aks holda, mutaxassislik mukammal bo`lmasligi. Qur`on va hadis mohiyatini chuqur bilmaslik Tasavvuf ilmini noto`g`ri talqin qilishga olib borishi.

6-mavzu:

Arab tili va mumtoz adabiyotini o`rganish zarurati. Arab tilidagi tasavvufga oid manbalar. Arab irfoniy she`riyati.

(2 soat)

Tasavvufni o`rganish jarayonida arab tili va mumtoz adabiyotini o`rganish zarurligi. Arab tilidagi tasavvufga oid manbalarni bilish va ular haqida yetarlicha ma`lumotga ega bo`lish zarurati. Arab irfoniy she`riyati haqida etarli ma`lumotga ega bo`lish. Ibn al-Foriz va Ibn al-Arabiy irfoniy she`riyatidan xabardor bo`lish zarurati. She`riy san`tlarni bilish va she`rlarni germeneytik sharhlashni o`rganish zarurati. Aks holda, mutaxassislik mukammal bo`lmasligi.

7-mavzu:

Fors-tojik tili va mumtoz adabiyotini o`rganish zarurati. Fors-tojik tilidagi tasavvufiy-irfoniy manbalar.

(4 soat)

Tasavvuf ilmini o`rganish jarayonida fors (tojik) mumtoz tili va adabiyotini chuqur o`rganish zarurligi. Fors-tojik tilidagi tasavvufiy manbalarni bilish va ular haqida etarlicha ma`lumotga ega bo`lish zarurati. Tasavvuf tarixi, falsafasi va adabiyotiga oid eng muhim manbalarning 60 foizdan ko`prog`, asosan, fors-tojik tilida yaratilganligi. Ularni o`rganmasdan turib Tasavvufshunos mutaxassis bo`lishning imkoni yo`qligi.

8-mavzu:

Fors-tojik irfoniy she`riyati. Sanoiy, Attor, Mavlaviy, Hofiz, Sa`diy, Jomiy, Bedilning tasavvufiy-irfoniy she`riyati.

(4 soat)

Fors-tojik irfoniy she`riyatining jahonshumul ahamiyati. Fors-tojik irfoniy-falsafiy she`riyati haqida etarli ma`lumotga ega bo`lish.

Irfoniy she`riyatning fors-tojik tilida vujudga krlishi va rivojlanishi. Sanoiy – tasavvufiy-irfoniy she`riyat asoschisi. Shayx Attorning “Mantiq ut-tayr”, “Asrornoma”, “Ilohiynoma” masnaviyarlari. Mavlono Jaloliddin Balxiyning “Masnaviyi ma`naviy”si – Tasavvuf qomusi ekanligi. Mavlaviyning “Devoni kabiri”, “Fiyhi mo fiyhi” asari, “Maktubot” va “Ruboiyot”i. Xoja Hofiz Sheroziyning irfoniy g`azallari, Mavlono Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang” tarkibidagi etti irfoniy masnaviyisi. Mavlono Jomiyning uchta devoni va ularning irfoniy mazmun-mohiyati. Jomiyning Tasavvuf tarixiga oid muhim asari – “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds”. Mirzo Abdulqodir Bedilning tasavvufiy-irfoniy she`riyatini tarjima qila olish va germenevtik usulda sharhlay bilish tasavvufshunos mutaxassislar uchun shart va zarur ekanligi. Aks holda, mutaxassislik mukammal bo`lolmasigi.

9-mavzu:

Eski o`zbek tili va mumtoz adabiyoti. O`zbek mumtoz irfoniy she`riyati: Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mashrab.

(4 soat)

Eski o`zbek tilida yaratilgan tasavvufiy-irfoniy asarlar. O`zbek mumtoz irfoniy she`riyati: Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i, Alisher Navoiyning “Xamsa”si, 4 ta g`azallar devoni, Boborahim Mashrab, So`fi Olloyorning so`fiyona g`azallari va she`rlari.

O`zbek mumtoz she`riyatida yaratilgan irfoniy masnaviy va g`azallarni germenevtik talqin qilish ko`nikmasini hosil qilish.

10-mavzu:

Tasavvufshunoslik mutaxassisligida Tasavvuf tarixshunosligi va manbashunosligi. Tasdavvufiy qo`lyozmala asarlar bilan ishlash ko`nikmasi.

(4 soat)

Tasavvufshunoslik mutaxassisligida Tasavvuf tarixshunosligi va manbashunosligining ahamiyati. Tasdavvufiy qo`lyozmala asarlar bilan ishlash ko`nikmasiga ega bo`lish. Arab va fors tilida yozilgan tasavvufga oid qo`lyozmalarni o`qib bilish, tarjima qila olish va sharhlay bilish tasavvufshunos mutaxassislar uchun shart va zarur ekanligi. Aks holda, tasavvufshunoslik mutaxassisligi mukammal bo`lolmasigi.

11-mavzu:

Tasavvufshunoslik mutaxassisligi va Axloq ilmi (“Etika”).

(4 soat)

Tasavvufshunoslik mutaxassisligi uchun Axloq ilmi (“Etika”)ning nihoyatda zarurligi. Tasavvuf ilmi aslida axloq ilmi ekanligi. Tasavvuf Insoni Komil tarbiyalash ilmi ekanligi. Nafs tarbiyasi va qalb tasfiyasi masalasi.

Tasavvufshunos mutaxassis Axloq ilmini o`rganmasdan turib tasavvufshunos bo`lolmasligi.

12-mavzu:

Tasavvufshunoslik mutaxassisligi va Ruhshunoslik ilmi (“Psixologiya”).

(4 soat)

Tasavvufshunos mutaxassis Ruhshunoslik ilmi (“Psixologiya”)dan xabardor bo`lishining ahamiyati. Tasavvufning o`ziga xos ruhiy tarbiya usuli ekanligi. Tasavvuf sayru sulukidagi Holot va Maqomot Tasavvuf psixologiyasi ekanligi. Psixologiya ilmini o`zlashtirmasdan yaxshi tasavvufshunos mutaxassis bo`lish amri mahol ekanligi.

III. Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg`ulotlarda talabalar “ Mutaxassislikning nazariy masalalari ” fanidan ma`ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg`ulotlar mavzulari bo`yicha tayyorgarlik ko`rish jarayonida qo`shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo`shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Mutaxassislikning nazariy masalalari “ fani bo`yicha amaliy mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1.“Mutaxassislikning nazariy masalalari” kursining maqsad va vazifalari. Tasavvufshunoslik – mustaqil mutaxassislik sifatida. Tasavvufshunos mutaxassis uchun zarur bo`lgan fan sohalari tasnifi.
- 2.Tasavvufshunoslik – “Falsafa” tarkibidagi mutaxassislik sifatida. Tasavvufning “Falsafa”, “Falsafa tarixi”, “Islom falsafasi”, “Din falsafasi”, “Tasavvuf falsafasi” fanlari bilan o`zaro uzviy aloqadorligi.
- 3.Tasavvufshunoslik – falsafiy fan sifatida. Tasavvufning ontologik, gnoseologik va antropologik asoslari. Tasavvufni o`rganishda falsafiy metodlar va metodologiyalar, falsafiy qonunlar va kategoriyalarning ahamiyati.
- 4.Tasavvufshunoslik – “Dinshunoslik” sohalasi doirasidagi mutaxassislik sifatida.Tasavvufshunoslikning “Din nazariyasi”, “Din tarixi”, “Din falsafasi”,

“Din psixologiyasi”, “Din etikasi”, “Qiyosiy dinshunoslik” fanlari bilan aloqadorligi.

5. Tasavvufshunoslik – “Islomshunoslik” sohasi doirasidagi mutaxassislik sifatida. Tasavvufning Qur’on, tafsir, hadis, islom tarixi, fiqh va kalom (Ilohiyotshunoslik) ilmlari bilan uzviy aloqadorligi.

6. Arab tili va mumtoz adabiyotini o’rganish zarurati. Arab tilidagi tasavvufiy manbalar. Arab irfoniy she’riyati.

7. Fors-tojik tili va mumtoz adabiyotini o’rganish zarurati. Fors-tojik tilidagi tasavvufiy-irfoniy manbalar.

8. Fors-tojik irfoniy she’riyati. Sanoiy, Attor, Mavlaviy, Hofiz, Sa’diy, Jomiy, Bedilning tasavvufiy-irfoniy she’riyati

9. Eski o’zbek tili va mumtoz adabiyoti. O’zbek irfoniy she’riyati: Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mashrab va b.

10. Tasavvufshunoslik mutaxassisligida Tasavvuf tarixshunosligi va manbashunosligi. Tasavvufga oid qo’lyozmala asarlar bilan ishlash ko’nikmasi

11. Tasavvufshunoslik mutaxassisligi va Axloq ilmi (“Etika”).

12. Tasavvufshunoslik mutaxassisligi va Ruhshunoslik ilmi (“Psixologiya”).

IV. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o’tilgan mavzuni chuqur o’rganishlari uchun darslik, o’quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma’ruza, amaliy mashg’ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko’rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo’yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko’chirmakashlik)ga yo’l qo’ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o’ziga yuklatilgan vazifalarni o’z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo’yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“**Mutaxassislikning nazariy masalalari**” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Tasavvuf va ilohiyot.
2. Tasavvufshunos mutaxassis axloq-odobi.
3. Tasavvufshunoslik – falsafiy fanlar doirasidagi mutaxassislik sifatida.
4. Tasavvufshunoslik mutaxassisligi uchun zarur bo'lgan ma'naviy-ruhiy ko'nikmalar.
5. Tasavvufshunoslik – islomshunoslik doirasidagi mutaxassislik sifatida.
6. Tasavvuf va hadisi sharif.
7. Tasavvufshunoslik – dinshunoslik doirasidagi mutaxassislik sifatida.
8. Tasavvuf ontologiyasi haqida ma'lumot.
9. Tasavvufshunoslik – sharqshunoslik doirasidagi soha sifatida.
10. Tasavvuf estetikasi.
11. Tasavvufshunos mutaxassis uchun zarur bo'lgan ilmiy-nazariy ko'nikmalar.
12. Tasavvuf gnoseologiyasi haqida ma'lumot.
13. Tasavvuf tarixshunosligi.
14. Tasavvuf psixologiyasi.
15. Tasavvufiy-irfoniy she'riyat.
16. Tasavvufshunos mutaxassis uchun zarur bo'lgan psixologik bilimlar.
17. Fors-tojik falsafiy-irfoniy she'riyat.
18. Tasavvuf antropologiyasi haqida ma'lumot.
19. Tasavvuf etikasi.
20. Arab irfoniy she'riyat.
21. Qiyosiy tasavvufshunoslik va Qiyosiy dinshunoslik.
22. Ibn al-Foriz irfoniy-falsafiy she'riyat.
23. Mavlono Jaloliddin Balxiy tasavvufiy-irfoniy she'riyat.
24. Mashrab so'fiyona she'riyat.
25. Tasavvuf va fors-tojik tili. Naqshbandiya tariqati tili.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- Tasavvuf ta'limoti tarkibida shakllangan Mutaxassislikning nazariy masalalari (irfon)ning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi, uning asosiy bahs mavzulari, islom va jahon falsafiy tafakkuri

	<p>taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rni, haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mutaxassislikning nazariy masalalari tarkibida shakllangan turli falsafiy g'oyalar va nazariyalar, jumladan, Hakim at-Termiziyning Valoyat nazariyasi, Ibn al-Arabiyning Vahdat ul-vujud falsafasi, Xoja Bahouddin Naqshbandning "Dil ba Yor, dast ba kor" prinsipi, tasavvuiy istilohlar va tushunchalarni mustaqil tarzda sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; • Markaziy Osiyo tasavvuf allomalarining falsafiy-irfoniy axloqiy-tarbiyaviy qarashlaridan ilmiy-amaliy va pedagogik faoliyatda foydalanishi; mustaqillik yillarida O'zbekistonda zamonaviy tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning mazmun-mohiyatini anglashi, xorijiy mamlakatlarda bu sohada qo'llanilayotgan yangi usullarning afzalligini ko'rsata bilishi va ulardan foydalana olish malakalariga ega bo'lishi kerak.
--	--

4	<p style="text-align: center;">VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; <p style="text-align: center;">jamo'a bo'lib ishlash.</p>
5	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va jiriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Komilov, Najmiddin. Tasavvuf. – T.: "Movarounnahr", "O'zbekiston", 2009.</p> <p>2. Н.Комилов. Тафаккур карвонлари. Шарқу Фарбнинг цивилизациявий алокалари. – Т. "Шарқ", 2011.</p> <p>3. Muxammadxodjayev A. Gnoseologiya sufizma. – Dushanbe: Donish - 1990. – 116 str.</p>

4.Xolmo‘minov, Ja’far. Jomiy va vahdat ul-vujud ta’limoti. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

5.Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf falsafasi. 1-qism: Tasavvuf ontologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 276 b.

6.Xolmo‘minov, Ja’far. Qiyosiy tasavvufshunoslik.– T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 266 b.

7.Xolmo‘minov, Ja’far. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta’limoti. – T.: “Tafakkur”, 2020. – 374 b.

8.Xolmo‘minov, Ja’far. Tasavvuf ontologiyasi. (Monografiya). – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 190 b.

9.Рахимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотининг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII – XI асрлар). – Тошкент: “Академнашр”, 2020. – 400.

10.Рахимов К. Хожагон-нақшбадиё тарикати ва етти пир. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 168.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1.Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. 2.Risolai volidiyya. / Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahridin Umrzoq, Hamidulloh Amin. – T.: “Adolat”, 2004.

2.Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichingdadir. / Tarj. U.Hamdani. – T.: “Yozuvchi”, 1997.

3.Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni. Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoni. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.

4.Хожа Мухаммад Ориф Ревгарий. Орифнома. Форс тилидан таржима, кириш, тадқиқ, изоҳлар, иловалар муаллифи ва нашрга тайёрловчи:

5.Комилжон Раҳимов. – Тошкент, “Splendid Idea”, 2021. – 144.

Раҳимов К. Олтин силсила: хожагон-нақшбандия тарикати етти пири. – Тошкент, “Splendid Idea”, 2021. – 524.

6.Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. 2.Risolai volidiyya. / Nashrga tayyorlovchilar: Mahmud Hasaniy, Bahridin Umrzoq, Hamidulloh Amin. – T.: “Adolat”, 2004.

7.Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichingdadir. / Tarj. U.Hamdani. – T.: “Yozuvchi”, 1997.

8. Hoja Abdulxoliq G'ijduvoni. Maqomoti Hoja Yusuf Hamadoni. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
9. Hoja Abdulxoliq G'ijduvoni. Wasiyatnoma. Fors tiliidan tarjima, kiriш, tadqiq, izoxlar, ilovalar muallifi va nashrga tayёрlovchi: Komiljon Raхimov. – Toshkent, “Splendid Idea”, 2021. – 204.
10. Hoja Muhammad Oriф Revgariy. Oriфнома. Fors tiliidan tarjima, kiriш, tadqiq, izoxlar, ilovalar muallifi va nashrga tayёрlovchi: Komiljon Raхimov. – Toshkent, “Splendid Idea”, 2021. – 144.
12. Hoja Ali Romitaiiy. Risolaи Hazrati Azizон. Fors tiliidan tarjima, kiriш, tadqiq, izoxlar, ilovalar muallifi va nashrga tayёрlovchi: Komiljon Raхimov. – Toshkent, “Splendid Idea”, 2021. – 132.
14. Raхimov K. Oltin silсила: хожагон-накшбандия тарикати етти пири. – Toshkent, “Splendid Idea”, 2021. – 524.
15. Raхimov K. Hoja Abdulxoliq G'ijduvoni. – Toshkent, “Splendid Idea”, 2021. – 204.
16. Raхimov K. Hoja Oriф Revgariy. – Toshkent, “Splendid Idea”, 2021. – 176.

Scopusdan maqolalar

1. Female Sufi guides and the Murshida fatwa in Indonesian Sufism: Murshidas in a Sufi order in Lombok. Open access Published: 15 April 2023. Volume 17, pages 363–390, (2023).
2. Sufism and Jungian Psychology: Ways of Knowing and Being. Chapter. First Online: 16 July 2021. pp 399–416. Cite this chapter
3. Mahpol, S., Mayidin, M.B., Ismail, M.Z. (2024). Integrating the Concept of Maqām in Arabic Grammar According to Al-Qushayri in “Nahw Al-Qulūb Al-Kabīr”. In: Hamdan, R.K., Buallay, A. (eds) Artificial Intelligence (AI) and Customer Social Responsibility (CSR). Studies in Systems, Decision and Control, vol 517. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-50939-1_67

Axborot manbalari:

1. islom.uz
2. muslim.uz
3. ziyouz.com

7

Fanning o'quv dasturi “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025 yil “25” 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil “28” 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan

8	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Komiljon Rahimov - TDShU, “Sharq falsafasi va germenevtika” kafedrası t.f.d. (DSc), dotsent .</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Qodirov M. – “Sharq falsafasi va germenevtika “ kafedrası f.f.n, professori</p> <p>Madolimov M. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Ijtimoiy fanlar “ kafedrası dotsenti</p>

all